Kirishga taʹqiq muddati sabablari bartaraf qilinganda RF ga kirishga taʹqiqni Главное управление по вопросам миграции МВД России ga murojaat qilib bekor qilish mumkin- kirishga taʹqiqni qayta koʹrishga oid arizani electron koʹrinishda МВД России saytidagi formadan foydalanib yoʹllash mumkin: https://mvd.rf/request_main
Arizaga kirishga taʹqiqni bekor qilish asoslanganini tasdiqlovchi hujjatlarni tirkamoq: RF fuqarosi boʹlgan bolalarning tugʹilgani haqidagi guvohnoma, nikoh qaydiga oid guvohnoma, kasallik borasidagi maʹlumotnomalar va hokazo.

RF ga kirishga taʹqiq qarorini qayta koʹrishni rad etmoq borasida sydga shikoyat etish mumkin. Norozilik arizasini kirishni taʹqiqlagan hududiy Управления по вопросам миграции hududida boʹlgan sudga bermoq zarur.

## EKSTREMIZM VA TERRORCHILIKKA QARSHI KURASH

**Ekstremizm va terrorchilikni har qanday qollash, ektremistlarga har qanday yordam koʹrsatish,** jumladan internetda quvvatlash, moliyaviy yordam koʹrsatish va taʹqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnasjiah – **ayniqsa ogʹir jinoyat!**
Ekstremistik yo terrorchilik jinoyatlarida aybdor deb topilgan chet ellik fuqaro uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi, soʹngra deportatsiya qilininadi va RFga kirishiga muddatsiz taʹqiq qoʹyiladi.
Ekstremizm belgilari:

- millatlararo nizo uygʹotish
- diniy afzallikni va boshqa dindagilar bilan urush zaruriyatini targʹib etish
- Rossiya davlat birbutunligini buzishni qoʹllash

Terrorchilik jinoyatlari belgilari:

- terrorchilik faoliyatini ommaviy oqlash
- terror amallarini tayyorlash va oʹtkazish
- terrorchilik faoliyatini moliyalash
- terrorchilarga yordam berish, shu jumladan aloqa xizmatlari, yashash uchun joy berish koʹrinishida va boshqalar.

**Ehtiyot boʹling – ekstremistik tashkilotlar bilan hamkorlik qilmang, ularga moliyaviy yordam bermang, ekstremistik materiallarni joʹnatmang va tarqatmang, hatto bu haqda tanishlaringiz va dindoshlaringiz iltimos qilishgan boʹlsalar ham!**

RF da ekstremistik deb eʹlon qilingan tashkilotlar roʹyxati:
https://minjust.gov.ru/ru/documents/7822/

RF da ekstremistik deb eʹlon qilingan materiallar roʹyxati:
https://minjust.gov.ru/ru/extremist-materials/

Ekstremistlar islomning yolgʹon sharhlarini niqob qilgan holda, yollash bilan shugʹullanishlari mumkin. Diniy masalalar boʹyicha faqat RF da ijozat berilgan rasmiy tashkilotlarga murojaat qiling.

https://dum-spb.ru/ - Духовное управление мусульман Санкт-Петербурга и Северо-Западной части России.

Ekstremistlar va terrorchilar faoliyati toʹgʹrisida xabar qiling:
http://www.fsb.ru/fsb/webreception.htm – ФСБ России ning electron qabulxonasi
+7 (495) 224-22-22, 8 (800) 224-22-22 – ФСБ России ning ishonch telefoni
8 (812) 573-21-81 – Sankt-Peterburgdagi politsiya ishonch telefoni.

Sankt-Peterburgdagi terrorchi va ekstremistik koʹrinishlarga qarshilik qilish tafsilotlari:
http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/profilaktika-ekstremizma/

## Foydali muloqot yoʹllari

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru – **«Добро пожаловать в Санкт-Петербург!»:** muhojirlar uchun internet-resurs Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге

migrussia.ru – **«Миграция и мигранты: информационный портал»** (turli tillarda huquq masalalariga oid maslahatlar, foydali muloqot yoʹllari)

**Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге**
Chet ellik fuqarolar uchun ishonch telefoni : 8 (812) 576-28-67
vk.com/spbmigrant

**Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области**
78.mvd.ru/ms Санкт-Петербург, ул. Красного Текстильщика, д.15
тел.: 8 (812) 573-38-25

**БФ «ПСП-фонд»** (chet ellik fuqarolar uchun bepul huquqiy yordam)
Ishonch telefoni: 8 (953) 141-31-09 tel.: 8 (812) 337-57-85
migrussia.ru, vk.com/pspfond

**Информационно-консультационный центр Красного Креста** (chet ellik fuqarolar va fuqaroligi yoʹq shaxslar uchun maslahatlar)
tel.: 8 (800) 333-00-16, spbredcross.org, rcc@spbredcross.org

*Буклет «Добро пожаловать в Санкт-Петербург! Как не нарушить закон. В помощь мигранту» (на узбекском языке).*
*Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»*
*Авторы-составители: Якимов А.Н., Панич Б.Л.*
*Тираж 2000 экз.*
*Изготовлено на средства субсидии, предоставленной Комитетом по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге*

Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге

БФ «ПСП-ФОНД»

**Sankt-Peterburgga xush kelibsiz!**

# Qonunni qanday buzmaslik mumkin

## muhojirga yordam



**Sankt-Peterburg**
**2023**

## MUHOJIRLIK QONUNCHILIGIGA RIOYA QILISH

Har bir chet ellik fuqaro majbur:

- muhojirlik qaydi (registratsiya) ni kelgan eri boʻyicha rasmiylashtirish RF ga kirgan paytdan 7 ish kuni davomida (Tojikiston va Oʻzbekicton fuqarolari – 15 taqvim kunida, EOII – 30 taqvim kuni, Belorus va Ukraina – 90 kun)
- muhojirlik qaydi /registratsiyadan oʻtilgan er boʻyicha yashash
- daktiloskopik qayd, fotosuratga tushish va tibbiy koʻrikdan oʻtish 30 kun davomida, agar ishlash uchun kelgan boʻlsangiz 90 kun davomida, agar boshqa maqsadlarda Rossiyada 90 kundan koʻproq turishni rejalashtirgan boʻlsangiz

Soʻngra tibbiy koʻrikdan har yili oʻtish kerak

- tibbiy polis rasmiylashtirish
- agar ishlash uchun kelgan boʻlsangiz – kelgan paytdan 30 kun davomida ishlah uchun patent rasmiylashtirish (EOII fuqarolariga patent rasmiylashtirish kerak emas)
- oʻz vaqtida (kamida 1 oy oldinga) ishlash uchun patent toʻlovini qilish
- faqat patentda koʻrsanilgan ixtisos va faqat koʻrsatilgan mintaqada ishlash,ixtisos yo ish mintaqasi oʻzgarganda oʻz vaqtida patentga oʻzgartirish kiritish

Quyidagilarga **maʻmuriy javobgarlik** nazarda tutilgan:

- kirish qoidasi yo turish tartibini buzganligi uchun
- shaxs va muhojirlik maqomini tasdiqlovchi hujjatlar yoʻqligi
- noqonuniy (ishlash uchun patentsiz) mehnat faoliyati yuritish
- muhojirlik qaydi amalga oshirilayotganda yolgʻon maʻlumotlar bermoq

Sanrt-Peterburgda sodir etilgan bunday qonunbuzarliklar uchun jazo - 5000-7000 rubl jarima Rossiyadan chiqarib yuborish va 5 yil muddatga kirishni taʻqiqlash bilan.

Kirish sanasidan 30 kundan ortiq paytda ishlash uchun patent berishga murojaat muddatini buzganligi uchun 10000-15000 rubl hajmida jarima nazarda tutilgan.

**Jinoiy javobgarlik** (ozodlikdan mahrum etish va yirik jarimalar) koʻzda tutiladi:

- hujjatlarni qalbakilashtirish va qalbaki hujjatlardan foydalanish
- RF chegarasidan noqonuniy oʻtmoq
- 

## POLITSIYA BILAN MUNOSABAT

Agar siz jinoyat guvohi yoki qurboni boʻlsangiz - politsiyaga murojaat eting:

**102 yo 112 raqamlari orqali - uyali telefondan**

Oʻzingiz bilan har doim amaldagi hujjatlarni olib yuring:

pasport

- muhojirlik kartasi
- muhojirlik qaydi (registratsiya) ga qoʻyiiganlik haqida bildiruv
- oldindan toʻlangan soliq toʻlovlari toʻlovi cheklari bilan ishlash uchun patent (EOII fuqarolaridan tashqari)
- amaldagi tibbiy polis

Politsiya xodimi sizga murojaat etganda maxsus koʻkrak nishoni (jeton) ga ega boʻlishi zarur – uning raqamini eslab oling yo yozib oling,Shaxsi aniqlanguncha fuqaroni uch soatdan ortiq muddatda ushlab turish mumkin emas.

Sud qarorigacha fuqaroni 48 soatdan ortiq muddatda ushlab turish mumkin emas.

Ushlangan kishi telefon qoʻngʻirogʻi huquqiga ega, himoyachi, shuningdek rus tilini yomon bilsa, tarjimon talab qilishi mumkin.

**Pora berish jinoyat sanaladi – politsiyachilarga pul bermang! Politsiya xodimlari jarima yo boshqa toʻlovlar uchun sizning hujjatlaringizni olib qoʻyish huquqiga ega emaslar!**

Agar politsiya xodimlari qonunni buzishsa – yordam uchun murojaat eting:

Sankt-Peterburgdagi politsiya “Ishonch telefoni”: 8 (812) 573-21-81

RF IIV “ishonch telefoni”: 8 (800) 222-74-47

Muhojirlik sohasida maʻmuriy qonunbuzarlikka oid protocol faqat Управления по вопросам миграции xodimlari tomonidan tuzilishi mumkin. Pronokol tuzilishi darhol jarima toʻlash zarurligini anglatmaydi - ish muhojir ishtirokida sudda yoki отделе по вопросам миграции районного управления ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области da koʻrib chiqilishi zarur. Koʻrib chiqish yakunlariga koʻra chet ellik fuqaroga qaror berishlari zarur, uni bajarish yo 10 kun davomida sudga shikoyat qilmoq kerak.

Siz sudda himoyachi xizmatidan foydalanish huquqiga egasiz. Sizning talabingizga koʻra tarjimon bilan taʻminlashlari zarur. Sud qarorini sizga tushunarli tilda etkazishlari kerak. Siz syd qarori ustidan yozma qaror olingan paytdan 10 kun davomida shikoyat qilishingiz mumkin.

Agar sizda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, registratsiya boʻlmasa, shuningdek siz muhojirlik qonunlarini takroran buzgan boʻlsangiz sud keyinchalik yurtingizga joʻnatish uchun sizni – ЦВСИГ (chet ellik fuqarolarni vaqtincha saqlash markazi) ga joylashtirish qarorini chiqarishi mumkin. Albatta mamlakatingiz konsuli bilan bogʻlaning yoki bepul huquqiy yordam uchun ijtimoiy tashkilotlarga murojaat eting.

ЦВСИГ №1 ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области: Санкт-Петербург, Красное Село, Кингисеппское шоссе, 51А +7 (812) 573-15-19, электронная почта – suvsig-spb@mail.ru

ЦВСИГ №2 ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области: Ленинградская область, г. Гатчина, ул. 120-й Гатчинской дивизии, дом 1, промзона 2, участок 3

Sankt-Peterburgda MDH mamlakatlari elchixonalari va konsulliklari bilan muloqot yoʻllarini ushbu manzildan topish mumkin: http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/spravochnaya-informaciya/posolstva-i-konsulskie-uchrezhdeniya-sankt-peterburga/

ЦВСИГ ga joylashtirish holatida sizga Ijtimoiy nazorat komissiyasi (ОНК) yordam berishi mumkin:
191124, Санкт-Петербург, Суворовский пр. 62,
http://onkspb.ru/, mail@onkspb.ru

## RFGA KIRISHGA TAʻQIQ. KIRISHGA TAʻQIQNI BEKOR QILISH.

3 yildan 10 yilgacha muddatda RF ga kirish taʻqiqi bilan jazolanadi:

- 3 yil davomida 2 va undan ortiq har qanday maʻmuriy qonunbuzish
- 1 yil davomida 2 va undan ortiq muhojirlik qonunlarini buzish
- RF da 30 kecha-kunduzdan ortiq hoqonuniy boʻlmoq

Agar siz ilgari RF dan chiqarib yuborilgan yo deport qilingan boʻlsangiz – chiqarish yo deportatsiya vaqtidan boshlab 5 yil davomida RF ga kirishga ruxsat berilmaydi.

Agar sizni davlat hisobidan chiqarib yuborishgan yo deport qilishgan boʻlishsa – siz RF ga ushbu xarajatlarni toʻlashingiz zarur, yoʻqsa, kirishga taʻqiq muddati tugaganidan soʻng ham sizni mamlakatga kiritishmaydi.

**Vositachilarga murojaat etmang: ular qalbaki hujjatlar tayyorlab berishlari mumkin, va siz RFga kirish taʻqiqlangan amal ostiga tushib qolasiz.**

Ishlash uchun patentlar haqqoniyligini quyidagi havoladan tekshirish mumkin: servisi.guvm.mvd.rf /info-service.htm?sid=2060

МВД России liniyasi boʻyicha taʻqiq chiqarilgan-chiqarilmaganini, Rossiya aviashirkatlari vakolatxonalarida yo ГУВМ МВД России saytidan bilish mumkin: servisi.guvm.mvd.rf/info-service.htm?sid=3000

RF ga kirish taʻqiqiga oid koʻproq toʻliq maʻlumotlar Пограничной службы ФСБ России. Пограничное управление Федеральной службы безопасности Российской Федерации по Санкт-Петербургу и Ленинградской области: ps.fsb.ru pu.spb.lenobl@fsb.ru 8 (812) 578-03-12, 8 (812) 438-61-94, 8 (812) 438-64-77 ixtiyorida boʻladi

## Kirishga taʻqiqni qanday bekor qilish mumkin?

Rossiyaga kirishni taʻqiqlashga oid qarorni bekor qilishlari mumkin:

- insonparvarlik asoslarida – agar qonun bilan belgilangan muddatlarda bemorlik, kasal qarindoshiga qarab turganligi sababli va boshqa favqulodda holatlarda Rossiyadan chiqib ketishga imkoniyati boʻlmaganligini isbotlay olganda
- oila birligini saqlash uchun – agar sizning oila aʻzolaringiz orasida (er/xotin, bolalar) RF fuqarolari borligi holatida, siz ulardan ayrila olmaysiz
- muhojirlik avfi tartibida – avf qilish shartlari va muddatlari RF va muhojir yashaydigan mamlakat hukumatlari aro kelishuv bilan aniqlanadi
- yangi paydo boʻlgan holatlarda –qaror xato tufayli chiqarilgan holatda
- kirishga taʻqiq muddati tugaganda